N. N. Ilishevaning ilmiy adabiyotlarida asosiy vositalarga “Asosiy vositalar-bu ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt davomida o‘z shaklini o‘zgartirmagan holda ishlaydigan va amortizatsiya to‘lovlari orqali o‘z qiymatini asta-sekin ishlab chiqarish tannarxiga o‘tkazadigan mehnat vositalaridir. Buxgalteriya hisobida asosiy vositalar tashkilotlar tomonidan uzoq vaqt (12 oydan ortiq) ishlab chiqarish tsiklida, ishlarni bajarishda yoki xizmatlar ko‘rsatishda, shuningdek boshqaruv faoliyatini amalga oshirish maqsadida foydalaniladigan mulkning bir qismi sifatida tan olinadi” deb ta’rif beriladi [1; 156 b].

Asosiy vositalar xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Z. N. Qurbonovni fikricha raqobatlashgan bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishida, undagi mehnat vositalarining takomillashishiga, rivojlanish va ulardan samarali foydalanish darajasiga bevosita bog‘liqdir. Barcha ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishda mehnat vositalari asosiy rolni o‘ynaydi. Buxgalteriya hisobida mehnat vositalari asosiy vositalar deb yuritiladi [2; 752 b].

Professor I. Ismanov o‘zining ilmiy adabiyotlarida asosiy vositalar hisobini tashkil qilishda quyidagi omillarni hisobga olish zarurligini ta’kidlab o‘tadi: asosiy vositalarni turkumlarga ajratish; asosiy vositalarni baholash tamoyillarini belgilash; asosiy vositalarni hisobga olish birligini aniqlash; asosiy vositalar harakatini birlamchi hujjatlar bilan o‘z vaqtida va to‘g‘ri rasmiylashtirishni amalga oshirish va brshqalar [3, 14 b].

Korxonalarda, jumladan avtomobil transporti korxonalarida ham mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxida asosiy vositalar amortizatsiyasi summasi sezilarli salmoqni tashkil etadi. Shu sababli hisob siyosatida belgilangan usullar va me‘yorlar asosida asosiy vositalarga amortizatsiya summasini to‘g‘ri hisoblash va hisobda to‘g‘ri aks ettirish muhim hisoblanadi.

Amortizatsiya obyekti to‘g‘risida Y. A. Babayevni fikricha “Amortizatsiya obyektlari tashkilotda mulk huquqi, xo‘jalik boshqaruvi, operativ boshqaruv (shu jumladan ijaraga olingan asosiy vositalar, bepul foydalanish uchun olingan asosiy vositalar) bo‘yicha joylashgan asosiy vositalar hisoblanadi” [4; 156 b].

N. N. Kireenkoning ilmiy adabiyotlarida amortizatsiyaga quyidagicha ta’rif berilgan: “Amortizatsiya-bu asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qiymatini tadbirkorlik faoliyati davomida ulardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) tovarlar, ishlar va xizmatlar qiymatiga o‘tkazish jarayonidir. Tashkilotning buxgalteriya hisobida ko‘rsatilgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar (balansdan tashqari hisobvaraqlarda ko‘rsatilgan obyektlar bundan mustasno) amortizatsiya obyektlari hisoblanadi” [5; 189 b].

Y. A. Babayevning fikricha foydalanish jarayonida va vaqt ta’siri ostida asosiy vositalar eskiradi, ya’ni ular asl texnik imkoniyatlari va xususiyatlarini yo‘qotadilar. SHu munosabat bilan ularning boshlang‘ich qiymati ham o‘zgaradi. Asosiy vositalar qiymati amortizatsiya ko‘rinishida ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritish yo‘li bilan qoplanadi [6; 162 b].

Asosiy vositalarning qiymati amortizatsiya bilan to‘lanadi. N. A. Litnevaning ilmiy adabiyotlarida amortizatsiya to‘g‘risida o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan: “Amortizatsiya – bu obyekt qiymatini uning ishtirokida yaratilgan mahsulotlarga (bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar) o‘tkazish va oddiy takror ishlab chiqarish manbasini yaratishning iqtisodiy mexanizmi. Amortizatsiya tashkilotda joylashgan asosiy vositalarga mulk huquqi, xo‘jalik boshqaruvi, operativ boshqaruv huquqidan qat’iy nazar hisoblanadi, ularning alohida turlari bundan mustasno. Ijaraga olingan asosiy vositalarga kapital qo‘yilmalar ham amortizatsiya qilinadi” [7; 95 b].

I. V. Gomanni fikricha asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati vaqt o‘tishi bilan ularning jismoniy va ma’naviy eskirishi tufayli kamayadi. Amortizatsiya asosiy vositalar tannarxini tayyor mahsulotlar, ishlar va xizmatlarga bosqichma-bosqich o‘tkazish jarayoni sifatida amortizatsiya to‘lovlari ko‘rinishidagi obyektlarni almashtirish yoki tiklash uchun tashkilotlarning pul tushumlarida mablag‘larni to‘plash imkonini beradi [8, 9 b].

Barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarda asosiy vositalar hisobi va ularga amortizatsiya hisoblash tartibi O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 5-sonli “Asosiy vositalar” milliy standarti (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 20-yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1299) bilan tartibga solinadi.

Mazkur standartning maqsadi mulk, xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqaruv huquqlari asosida xo‘jalik yurituvchi subyektga tegishli bo‘lgan asosiy vositalar hisobi uslubiyotini aniqlash hisoblanadi.

Moddiy aktivlarni asosiy vositalar tarkibiga kiritishda ularning foydali xizmat muddatini belgilash muhim rol o‘ynaydi. Professor K. B. Urazovni fikricha foydali xizmat muddati, deganda asosiy vosita larning korxona tomonidan belgilangan foydalanish muddati tushuniladi. Bu muddat yillar yoki oylarda ifodalanib, uning foydali iligi ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish, xizmat) hajmi bilan o‘lchanadi. Foydali xizmat muddati davomida asosiy vositalar o‘zlarining qiymatini to‘liq qoplashlari va korxonaga qo‘shimcha daromad keltirishlari lozim [9, 12 b].

Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashda tugatish qiymatini hisobga olish belgilab qo‘yilgan. M. B. Kalonovni ilmiy izlanishlari natijalariga ko‘ra tugatish qiymati to‘g‘risida quyidagi fikrlarni bildirgan. Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, aksariyat avtomobi transporti korxonalarida asosiy vositalarga tugatish qiymati belgilanmagan. Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati asosida amortizatsiya hisoblangan [10; 93 b].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Avtomobil transporti korxonalari asosiy vositalari va ularning amortizatsiyasi xarajatlari, ularning buxgalteriya hisobida hisobga olishga oid amaldagi me'yoriy hujjatlarni, mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, amortizatsiya xarajatlarini tahlil qilish, aniqlashtirish, taqqoslash, mantiqiy fikrlash, muqobilini tanlash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Hozirgi kunda dunyo avtomobilsozlik sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda, natijada, avtomobillarni yoqiligi'siz, atrof-muhitga zararli chiqindilarni chiqarishdan holi bo'lgan elektr energiya bilan harakatlanadigan avtomobillar yaratildi va ularga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda.

Jumladan, bizning mamlakatimizda ham yo'lovchilarni tashishda elektrobuslardan foydalanish yo'lga qo'yilgan, kelajakda yo'lovchi va yuklarni tashishda elektr energiya bilan harakatlanadigan transport vositalari barcha yo'nalishlarni to'liq qamrab olishi tabiiy.

Elektrobuslar qiymatini katta qismini ularning akkumulyatorlari qiymati tashkil etganligi sababli, elektrobus akkumulyatorlarini identifikatsiyalash, ya'ni elektrobus va uning akkumulyatorlari hisobini alohida-alohida olib borish. Akkumulyatorlar almashtirilganda uning qiymatini amortizatsiya ko'rinishida xarajatlarga kiritish tartibini joriy etish.

Natijada xizmat muddati tugallangandan so'ng almashtiriladigan akkumulyatorlar qiymati birdaniga xarajatlari hisobiga hisobdan chiqarilmasdan, amortizatsiya ko'rinishida xarajatlarga hisobdan chiqariladi, bu esa xizmatlar tannarxini pasaytirib muvofiqlik tamoyilini taminlaydi.

Bugungi kunda "Toshshahartransxizmat" aksiyadorlik jamiyati tassarufidagi avtobus saroylari elektrobus xizmatlaridan foydalanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-59-sonli qaroriga asosan Toshkent shahri jamoat transporti uchun 300 ta 12 metrli elektrobuslar xarid qilish nazarda tutilgan. Bundan ko'rinib turibdiki elektr energiya bilan harakatlanadigan, ekogoliyaga zararli chiqindilarsiz bo'lgan elektrobuslarga talab ortmoqdi.

Elektrobuslarni asosiy harakatlantiruvchi qismi (agregati) akkumulyatorlar hisoblanadi. Hozirgi kunda 1 dona elektrobusni qiymati uning katta-kichikligi va yo'lovchilarni tashish quvvatiga muvofiq 3 000 000,0–3 500 000,0 ming so'mni tashkil qiladi. Shundan, akkumulyatorlar qiymati o'rtacha 550 000,0–1 200 000,0 ming so'mni tashkil qiladi.

Elektrobuslar aksiyadorlik jamiyati balansiga kirim qilingandan so'ng amaldagi me'yoriy hujjatlarga asosan amortizatsiya hisoblanadi. Amortizatsiyalanadigan qiymat 3 000 000,0–3 500 000,0 so'mni tashkil qiladi va korxonaning hisob siyosatida belgilagan usullar yordamida amortizatsiya hisoblanadi va xarajatga olib boriladi. Elektrobuslar akkumulyatorlarining foydali foydalanish muddari 5 yildan 6 yilgacha qilib belgilangan¹.

Elektrobuslar akkumulyatorsiz o'zining ahamiyatini yo'qotadi. Elektrobusdan foydalanish muddati 15 yil va undan ortiq muddatni tashkil qiladi. Demak, elektrobusni foydali foydalanish davomida ikki va undan ortiq marta akkumulyatorlarini almashtirishga to'g'ri keladi. Natijada akkumulyatorlar qiymati to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarga olib boriladi va mazkur davrda xarajatlarni ko'payishiga olib keladi hamda korxonaning moliyaviy natijasiga o'z ta'sir ko'rsatadi.

Biz elektrobuslarni kirim qilishda, elektrobuslar va ularning akkumulyatorlarini alohida-alohida hisobini yuritishni taklif qildik.

Elektrobuslar akkumulyatorlari hisobini alohida yuritish, ularga amortizatsiya ajratmalarini alohida hisoblash, ishga yaroqsiz holga kelgan akkumulyatorni almashtirish bilan bog'liq xarajatlarni birdaniga hisobdan chiqarilmasdan, akkumulyator va uni almashtirish bilan bog'liq xarajatlarni amortizatsiya ko'rinishida akkumulyatorni foydali foydalanish muddati davomida bir maromda hisobdan chiqarish tartibi taklif etildi.

Aytaylik, bir dona elektrobusni akkumulyatori yangisiga almashtirildi, akkumulyatorining qiymati va o'rnatish xarajatlari o'rtacha 900 000,0 ming so'mni, xizmat muddati 5 yilni tashkil qiladi deylik, demak, akkumulyator almashtirilgan oyda 900 000,0 ming korxonaning xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarga olib boriladi. Taklif etilayotgan hisob bo'yicha agarda amortizatsiya Soliq kodeksida belgilangan me'yorlar bo'yicha hisoblansa (20%) bu summa yiliga 180 000,0 ming so'mni, oyiga 15 000,0 ming so'mni tashkil qiladi. Natijada amortizatsiya xarajatlari korxonaning hisobot yilidagi moliyaviy natijasiga jiddiy ta'sir qilmaydi.

Biz Elektrobusni amaldagi va taklif qilinayotgan hisobga olish tartiblarini ko'rib chiqamiz. Elektrobus akkumulyatori uchun 0160- "Transport vositalari" sintetik schyotida 0169- "Elektrobus akkumulyatori" analitik schyoti va 0260- "Transport vositalarining eskirishi" sintetik schyotiga 0269- "Elektrobus akkumulyatorini eskirishi" analitik schyotlari ochiladi.

¹ <https://autoreview.ru/articles/gruzoviki-i-avtobusy/batarei-elektrobusov-ecitaro-ispol-zuyut-dlya-tramvaev>



Korxona balansiga elektrobus kirim qilindi, uning sotib olish va olib kelish xarajatlari 3 000 000,0 ming so'mni, shundan, akkumulyator qiymat 900 000,0 ming so'mni tashkil qiladi. Elektrobusga amortizatsiya Soliq kodeksida belgilangan me'yorlar bo'yicha hisoblandi. Elektrobusni akkumulyatori xizmat muddati tugallanganligi sababli yangi akkumulyatorga almashtirildi, uning qiymati 1 000 000 so'mni tashkil etdi. Elektrobus va uning akkumulyatorini hisobga olish va ularga amortizatsiya hisoblash jarayonini amaldagi va taklif etilayotgan tartibi quyidagi 1-jadvalda berilgan.

1-jadval: Elektrobus va uning akkumulyatori hisobini amaldagi va taklif etilayotgan tartibi

№	Jarayonlar mazmuni	Summa	Amaldagi tartib		Tavsiya etilayotgan taklif	
			Debet	Kredit	Debet	Kredit
1	Elektrobus balansga kirim qilinganda.	3 000 000 000	0160	0820		
	Elektrobus uchun amortizatsiya hisoblanganda.	3 000 000 000	2010	0260		
	Elektrobusga yangi akkumulyator o'rnatilganda	900 000 000	2010	1040		
2	Elektrobus balansga kirim qilinganda. 2 100 000 000 (3 000 000 000– 9 00 000 000) so'm.	2 100 000 000			0160	0820
	Elektrobus akkumulyatori qiymati kirim qilindi	900 000 000			0160 (0169)	0820
	Elektrobus uchun amortizatsiya hisoblandi.	2 100 000 000			2010	0260
	Elektrobus akkumulyatori uchun amortizatsiya hisoblandi.	900 000 000			2010	0260 (0269)
3	Elektrobusga yangi akkumulyator o'rnatilganda	900 000 000			0160 (0169)	1040 6010
	Yangi o'rnatilgan akkumulyatorga birinchi yil uchun amortizatsiya hisoblandi. Amortizatsiya me'yori 20 foiz.	180 000 000			2010	0260 (0269)

Mazkur hisobga olish tartibini joriy qilinishi, korxona xarajatlarini to'g'ri yuritilishiga va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini to'g'ri aniqlanishiga hamda moliyaviy natijalar shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yo'lovchi tashuv korxonalari tomonidan yo'lovchi tashish uchun mo'ljallangan transport vositalari korxonalar tomonidan o'z mablag'lari hisobiga va bank kreditlari hisobiga sotib olinishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida byudjet mablag'lari hisobiga (tekinga) kirim qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 304-"Soliq solishda hisobga olinmaydigan daromadlar" moddasining 8-bandida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq tekinga olingan mol-mulk va xizmatlar foyda solig'ini hisoblashda daromad hisobga olinmasligi belgilab qo'yilgan.

Lekin, Soliq kodeksini 306-"Amortizatsiya xarajatlari" moddasida Soliq kodeksi 304-moddasining 8, 9, 14 va 15-bandlariga muvofiq kelib tushgan mablag'lar hisobidan olingan yoki sotib olingan (yaratilgan), shuningdek soliq va bojxona imtiyozlari berilishi natijasida bo'shagan mablag'lar hisobidan olingan yoki sotib olingan (yaratilgan) amortizatsiya qilinadigan aktiv (tegishli qismi bo'yicha) amortizatsiya hisoblanmasligi belgilab qo'yilgan.

Yo'lovchi tashuv korxonalari tassarufidagi bir dona yo'lovchi tashish uchun mo'ljallangan avtobus va elektrobuslar qiymati ham yuqorida qayd etganimizdek sezilarli darajada katta summani tashkil qiladi. Ularga amortizatsiya hisoblanmasa, korxonaning moliyaviy hisobotlarida transport vositalarining sof qiymatini aks ettirish tartibi buziladi. Amortizatsiya hisoblanmasa mazkur summa xarajatlar hisobiga hisobdan chiqariladi va foyda summasini kamaytirishga olib keladi hamda foyda solig'nini hisoblashda tuzatish kiritilishiga olib keladi.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida byudjet mablag'lari hisobiga (tekinga) kirim qilingan transport vositalari va ular uchun hisoblangan amortizatsiya summalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi bo'yicha tavsiyalar 2-jadvalda berildi.



2-jadval: Tekinga kirim qilingan transport vositalari va ular uchun hisoblangan amortizatsiya summalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi

№	Jarayonlar mazmuni	Summa	Buxgalteriya yozuvlari	
			Debet	Kredit
1	Transport vositalari balansga kirim qilinganda	3 000 000 000	0160	8530
2	Foydalanilgan birinchi oy uchun amortizatsiya hisoblanganda $3\,000\,000\,000 \times 20 / 100 = 600\,000\,000$ so'm $600\,000\,000 / 12 = 50\,000\,000$ so'm bir oy uchun	50 000 000	8530	0260
2	Foydalanilgan ikkinchi oy uchun amortizatsiya hisoblanganda, shu tartibda davom ettiriladi	50 000 000	8530	0260

Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida tekinga olingan transport vositalari uchun hisoblangan amortizatsiya summasi xarajatlar hisobiga hisobdan chiqarilmaydi hamda xizmatlar tannarxini pasayishiga va to'g'ri aniqlanishiga erishiladi.

Yo'lovchi tashuv korxonalariga asosiy vositalar, jumladan, transport vositalari ham subsidiyalar va grantlar hisobiga sotib olinishi mumkin. Subsidiyalar hisobi va uni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish tartibi O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 10-sonli "Davlat subsidiyalarining hisobi va davlat yordami bo'yicha ko'rsatiladigan ma'lumotlar" milliy standarti (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 3-dekabr, 562-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) asosida amalga oshiriladi.

Mazkur standartga muvofiq Davlat subsidiyalari – xo'jalik yurituvchi subyektning operatsiya faoliyatiga taalluqli muayyan sharoitlarda xo'jalik yurituvchi subyektga resurslarni berish tarzida hukumat tomonidan beriladigan yordam hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi 61-son buyrug'iga 10-ilova, 20-son "Davlat grantlari hisobi va davlat yordami to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritib berish" Buxgalteriya hisobining xalqaro standartiga muvofiq aktivlarga oid davlat grantlari, jumladan haqqoniy qiymatdagi nomonetar grantlar, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda kechiktirilgan daromad sifatida yoki aktivning balans qiymatini aniqlashda grant qiymatini chegirish orqali aks ettirilishi lozim. Aktivlarga oid grantlarni (yoki grantlarning tegishli qismlarini) moliyaviy hisobotda taqdim etishning ikki usuli ham muqobil qabul qilinadi.

Birinchi usulga ko'ra, grant aktivning foydali xizmat muddati mobaynida tizimli asosda foyda yoki zarar tarkibida tan olinadigan kechiktirilgan daromad sifatida tan olinadi.

Ikkinchi usulga ko'ra, grant summasi aktivning balans qiymatini hisoblashda chegirib tashlanadi. Grant eskirish hisoblanadigan aktivning foydali xizmat muddati mobaynida foyda yoki zarar tarkibida eskirish xarajati kamayishi tarzida tan olinadi.

Avtomobil transporti korxonalarida maqsadli moliyalashtirishning (aktivlarga kiritilgan subsidiyalar va grantlar) byudjet mablag'lari hisobiga sotib olingan transport vositalari va ular uchun hisoblangan amortizatsiya summasini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi bo'yicha tavsiyalar berildi va bu jarayonlarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettirish tartib quyidagi misol asosida 3-jadvalda berildi.

Yo'lovchi tashuv xizmatini ko'rsatuvchi korxonaga qiymati 3 000 000,0 ming so'm bo'lgan transport vositasini subsidiya hisobiga sotib olish uchun mablag' ajratildi va sotib olindi. Korxona mazkur transport vositasiga Soliq kodeksiga muvofiq yillik 20 foiz stavkada amortizatsiya hisoblaydi 3-jadval.

3-jadval: Subsidiyalar va grantlar hisobiga sotib olingan transport vositalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi

№	Jarayonlar mazmuni	Summa	Buxgalteriya yozuvlari	
			Debet	Kredit
Kechiktirilgan daromad sifatida aks ettirish bo'yicha:				
1	Ajratilgan grant (subsidiya) lar haqida xabarnoma olinganda.	3 000 000 000	4890	8810, 8820
2	Grant summasidan moliyalashtiriladigan va byudjetda ko'zda tutilgan transport vositasining qabul qilinishi	3 000 000 000	0160	4890
3	Transport vositalariga eskirish hisoblendi 600 000 000 (3 000 000 000 x 20/100)	600 000 000	2010	0260
4	Hisoblangan eskirish summasi miqdorida daromad tan olinganda	600 000 000	8810, 8820	9390



Aktivning balans qiymatini aniqlashda grant qiymatini chegirish orqali aks ettirish bo'yicha. Agarda transport vositasi qiymati to'liq ajratilgan grant (subsidiya) lar hisobidan amalga oshirilsa

1	Ajratilgan grant (subsidiya) lar haqida xabarnoma olinganda	3 000 000 000	4890	8810, 8820
2	Grant summasidan moliyalashtiriladigan va byudjetda ko'zda tutilgan transport vositasining qabul qilinishi	3 000 000 000	0160	4890
3	Transport vositasining to'liq (dastlabki) qiymatiga	3 000 000 000	8810, 8820	0160

Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida subsidiya va grantlarlar hisobiga sotib olingan transport vositalari va boshqa aktivlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish, daromad va xarajatlarni tan olish hamda moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirish imkoniyati yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Avtomobil transporti korxonalarida transport vositalari amortizatsiyasi va uni hisoblash tartibini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosa va takliflarni beramiz:

Avtomobil transporti korxonalarida asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashda asosiy vositalarni, jumladan, transport vositalarining tugatish qiymatini tahminiy me'yorini va hisoblash tartibini korxona hisob siyosatida aks ettirish hamda amortizatsiyalanadigan qiymatni aniqlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Elektrobuslar qiymatini katta qismini ularning akkumulyatorlari qiymati tashkil etganligi sababli, elektrobus akkumulyatorlarini identifikatsiyalash, ya'ni elektrobus va uning akkumulyatorlari hisobini alohida-alohida olib borish. Akkumulyatorlar almashtirilganda uning qiymatini amortizatsiya ko'rinishida xarajatlarga kiritish tartibini joriy etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida byudjet mablag'lari hisobiga (tekinga) kirim qilingan transport vositalariga amortizatsiya hisoblanganda amortizatsiya summasini Debet 8530-"Tekinga olingan mulk" schyoti, Kredit 0260-"Transport vositalarining eskirishi" schyotlarida aks ettirish.

Avtomobil transporti korxonalarida maqsadli moliyalashtirishning (aktivlarga kiritilgan subsidiyalar va grantlar) byudjet mablag'lari hisobiga sotib olingan transport vositalari va ular uchun hisoblangan amortizatsiya summasini, kechiktirilgan daromad sifatida va aktivning balans qiymatini aniqlashda grant qiymatini chegirish orqali aks ettirish bo'yicha berilgan tavsiyalarni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Н. Н. Ильшева, Е. Р. Синянская, О. В. Савостина. Бухгалтерский учет: учебное пособие. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 156 с.
2. Z. N. Qurbonov, K. M. Misirov. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2019. – 752 b.
3. И. Исманов, Н. Тошмаматов, С. Бузрукхонов. Молиявий ҳисоб ва ҳисобот. Дарслик. Тошкент. "Sano-standart"-2019 йил.
4. Ю. А. Бабаев, А. М. Петров. Бухгалтерский учет: учебник. Москва: Проспект, 2021. – 496 с.
5. Н. Н. Киреев, С. К. Матальская. Бухгалтерский и управленческий учет. Учебное пособие. Минск : БГАТУ, 2022. – Ч. 1. – 368 с
6. Ю. А. Бабаев, И. П. Комиссарова, В. А. Бородин. Бухгалтерский учет: Учебник для студентов вузов. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. - 527 с
7. Н. А. Лытнева, Л. И. Малявкина, Т. В. Федорова. Бухгалтерский учет: Учебник. –М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006.– 496 с.
8. И. В. Гоман, Е. С. Подборнова. Бухгалтерский учет, налогообложение и аудит предприятия. Учеб. пособие. Самара: Изд-во Самарского университета, 2018. – 80 с.
9. K. B. Urazov. Moliyaviy hisob va hisobot. O'quv qo'llanma. Toshkent "Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi" – 2020 yil.
10. M. B. Kalonov. Daromadlar va xarajatlarni hisobi hamda tahlili uslubiyoti. Monografiya. Toshkent: Akademnashr, 2019 y.–352 b.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

